

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**ABDULLAYEV BEGZODBEK XOLDARALIYEVICH**

**REKLAMA DISKURSINING SHAKLLANISH OMILLARI  
(Og‘zaki va mediareklamalar misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich**

Reklama diskursining shakllanish omillari (ogʻzaki va mediareklamalar misolida) ..... 3

**Абдуллаев Бегзодбек Холдаралиевич**

Факторы формирования рекламного дискурса (на примере устной и медиа рекламы) ..... 33

**Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich**

Factors in the Formation of Advertising Discourse(On the Example of Oral and Media Advertising)..... 67

**Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 72

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**ABDULLAYEV BEGZODBEK XOLDARALIYEVICH**

**REKLAMA DISKURSINING SHAKLLANISH OMILLARI  
(Og‘zaki va mediareklamalar misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalarvazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil810 raqam bilan ro‘yhatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezume) tillarida) Andijon davlat chet tillari instituti web-sayti ([www.adchti.uz](http://www.adchti.uz)) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidxonov Ma’mirjon Muxammedovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Raupova Laylo Rahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Shahlo Xamroyeva Mirdjonovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76; faks: 0(374)223-42-76; e-mail: [asifl@edu.uz](mailto:asifl@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.Dj.Ataboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**M.A.Abduvaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning shakllanishi lingvopragmatika, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi, diskurs tahlili, sud lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, sotsiolingvistika, kvant lingvistikasi kabi yangi yo‘nalishdagi fanlarning rivojlanishi va j‘ziga xos ichki shakllanishiga asos bo‘ldi. Hammamizga ma‘lumki, til va unga oid tadqiqotlar jamiyatning qay darajada taraqqiy etganini ko‘rsatuvchi ko‘zgu hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda davr taqozosi bilan rivojlanib kelayotgan reklama diskursi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, bozor munosabatlaridagi o‘ziga xos roli va insoniyatga ijtimoiy-ma‘naviy ta’siri kundan-kunga ortib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida reklamaning tasniflanishi bo‘yicha ilk harakatlar XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ammo hozirgi kungacha reklamaning yagona tasnifi va tan olingan ta’rifi mavjud emas. Ayniqsa, mediareklamalarning rivojlanishi reklamaning tiplarini farqlashga yo‘l ochgan bo‘lsa-da, ularning tasniflanishi kuzatilmadi. Bugungi kungacha tasniflash borasida yagona xulosaga kelinmaganligi uchun reklama tipologiyasi, asosan, iqtisodiy-strategik belgilar doirasida kuzatiladi. Reklamaning o‘ziga xos mavzu yo‘nalishlari, imiji, tashqi ko‘rinishi va mazmuni, namoyish qilish joyi va qaysi usulda yaratilishini tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi – buyurtmachining o‘zi belgilaydi. Mediareklama namoyishiga ko‘ra qaysi manbaning tanlanishida, albatta, moliyaviy imkoniyat rol o‘ynaydi. Zamonamizda iste’molchilarning didi, dunyoqarashi va boshqa talablaridan kelib chiqib verbal matn yaratishning turlicha zamonaviy ko‘rinishlarini o‘zida mujassamlashtirgan reklama diskursi tez rivojlanganidan, reklamashunoslik va uning lingvistik nazariy tadqiqiga nisbatan masalaning amaliy jihati orasidagi masofani yaqinlashtirish ancha orqada qolmoqda. Reklama ijtimoiy hodisa bo‘lganligi uchun ham inson omili aralashgan barcha yangiliklar shu sohada ilk bora sinovdan o‘tmoqda. Shuning uchun ham mediareklamalardagi shaxsni qiziqtirishga qaratilgan har qanday yangilik ularni turlarga ajratishda qiyinchilik keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining juda ko‘p rivojlangan mamlakatlar bilan barcha sohalarda hamkorlik qilayotgani, jumladan, iqtisodiy munosabatlarining ortib borayotganligi uchun qisqa davrda o‘zbek tilidagi reklama matni va diskursining til amaliyotidagi o‘rni, turli muloqot uslublarining o‘ziga xos pragmalingvistik jihatlarini o‘rganish ham dolzarb, ham istiqbolli masalaga aylanib ulgurdi. Reklama tilining lingvistik xususiyatlari, reklama diskursiga oid bilimlar endi-endi shakllanmoqda. O‘zbek tilshunosligida milliy savdo madaniyatiga oid reklamalar, reklama o‘rnini bosuvchi xatti-harakatlarning lisoniy tabiatini o‘rganish, ularni fanga olib kirish uchun ham izlanishlar talab etiladi. Ushbu muammo o‘zbek reklama lingvistikasini takomillashtirish zaruratini belgilaydi. Ta’kidlab o‘tish joizki, mamlakatimizda reklama faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining “Reklama

to'g'risida"gi Qonuni 1998-yilda qabul qilinganligi hamda unga hozirga qadar 14 marotaba o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganligi ham bu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi. 2020-yil 9-mart kuni Vazirlar Mahkamasida ko'cha va aholi punktlarini nomlash, peshlavhalar, reklama va e'lonlarning davlat tilida berilishi singari masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda<sup>1</sup> "...Jamoat joylari, ko'chalar, binolar peshtoqida, turli lavha va reklamalarning ko'pincha boshqa tillarda yoki mantiqsiz, tushunarsiz mazmunda va shaklda aks ettirilishi"<sup>2</sup> muammosi ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-dekabrda "Reklama to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-avgustdagi "Tashqi reklamani joylashtirish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 702-sonli qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jahonning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Harvard Business School, University of Columbia, University of Colifornia, Harvard University, University Pennsylvania, Stanford University (AQSh), Amsterdam School of Communication Research (Niderlandiya), Annenberg School for Communication and Journalism (Kaliforniya), University of Leipzig, The Humboldt University(Germaniya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg

---

<sup>1</sup> Ўзбекистонда реклама бўйича янги қондалар жорий этилади. <https://kun.uz/83115705?q> – Murojaat sanasi: 10.12.2023

<sup>2</sup> «Жойлардаги масъуллар фаолияти қониқарсиз» – Абдулла Арипов ўзбек тили мавқеини ошириш бўйича ишларга баҳо берди. <https://kun.uz/news/2020/03/09/> – Murojaat sanasi: 10.12.2023

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi uchun ushbu manbalardagi ma'lumotlarga asoslanildi: [www.unilim.fr](http://www.unilim.fr), [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru), [www.Medialing.ru](http://www.Medialing.ru), [www.moluch.ru](http://www.moluch.ru), [www.spravochnick.ru](http://www.spravochnick.ru), [www.studfile.net](http://www.studfile.net), [www.ksu.edu.ru](http://www.ksu.edu.ru), [www.uniaugsbupg.de](http://www.uniaugsbupg.de), [www.reseachgate.net](http://www.reseachgate.net), [www.communication\\_psychology.academic.ru](http://www.communication_psychology.academic.ru), [www.google.scholar.com](http://www.google.scholar.com), [www.cheloveknauka.com](http://www.cheloveknauka.com), [www.dslib.net](http://www.dslib.net), [www.eupophpas.opg](http://www.eupophpas.opg), [www.linguistics.ucsb.edu](http://www.linguistics.ucsb.edu), [www.ucm.sk](http://www.ucm.sk), [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz), [www.onu.edu.ua](http://www.onu.edu.ua), [www.unizg.hp](http://www.unizg.hp), [www.academia.edu](http://www.academia.edu), <http://www.afliko.fr>; <http://www.ptjk.pl/>, [www.uwb.edu.pl](http://www.uwb.edu.pl), [www.spbu.ru](http://www.spbu.ru), [www.navoiy – uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz), <http://users.iks.aalto.fi/tho/fikla/>; <http://www.kognitivelinguistiks.org>; <http://www.uk-kla.org.uk/>; <http://talk.info/>; <http://www.aelko.es/>, [www.ugal.ro](http://www.ugal.ro)

davlat universiteti, Rostov universiteti, Sorbonne College de France (Fransiya), University Melburn (Avstraliya), University Lids (Buyuk Britaniya), Moskva shahar pedagogika instituti (Rossiya), University Hong Kong (Xitoy), Uniwersytet Warszawski (Polsha), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusi yo'nalishida quyidagi ilmiy natijalar olingan: reklama tili va uning ta'sirchanligi, matnlarining texnologik ta'sir qilish usullari, qiziqtiruvchi va auditoriyani undovchi tomonlari, reklama tilining psixolingvistik xarakteri, inson ongiga ta'sir kuchi tahlilini, reklamada nutq aktlarining roli, reklama matnining lingvistik va stilistik jihatdan tahlili, reklamanning dasturiy ta'minoti va iste'molchiga ta'sir qilish usullari, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi stilistik tomonlari yuzasidan ish olib borildi (AQSh, Polsha, Rossiya); reklama lingvistikasi, matn tahlili, semiotik tomonlari (Germaniya); pragmatika nazariyasi asosidagi reklama tili (Germaniya, AQSh); reklama tili va uning nutq aktlari nazariyasi bilan bog'liq jihatlari, reklama diskursining ijtimoiy-lingvistik va madaniy kontekstlardagi dasturiy ta'minoti tahlili (Buyuk Britaniya, Fransiya); diskurs va kontekstning o'zaro bog'liqligi (AQSh, Ispaniya); reklama tilida rituallar, ramzlar va semantik belgilar, reklama matnlarida ijtimoiy rollar masalasi (AQSh); milliy reklama matnlarining pragmatik tomonlari (Xitoy).

Ko'rilayotgan masala yuzasidan jahon tilshunosligida matn, diskurs va uning pragmatik tahlili, reklama matnining ijtimoiy-lingvistik jihatlari, diskursning matnga bog'liqligi, reklama diskursida nutqiy akt nazariyasi, reklama tilining semantik va stilistik xususiyatlari kabi masalalar ustida ustuvor ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ammo o'zbek tilshunosligida reklama diskursi, og'zaki reklamalar, reklamalarda nutqiy akt masalasi hamda mediareklamanning keng ma'nodagi tadqiqiga bag'ishlangan yirik monografik ishlar hali mavjud emas.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Reklama fenomenini tadqiq qilishda turli fan mutaxassislari tomonidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. G'arb va rus tilshunosligida D.Ogilvi, D.E.Rozental, N.N.Koxtev, K.Garri, X.Kaftandjiyev, K.Bove, U.Arens, I.Y.Rashkov, T.B.Kolishkina, Ye.V.Medvedeva, E.D.Farbi, E.V.Bulatova, G.Litvinova, E.Anasimova, L.Mayevskaya, Y.Pirogova, N.Gurskaya, S.Martinova, D.Zarlikova, I.Moiseyenko, S.Bereza, I.Grilich va boshqa ko'plab olimlarning qarashlarida reklama matnining ham nazariy, ham amaliy masalalari, lingvistik jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – М.: Высшая школа, 1981; Кохтев Н.Н. Стилистика рекламы: Учеб.-метод. пособ. для студентов фак. и отд. журналистики. – М.: МГУ, 1991; Гарри К. Эффективная реклама в России. – М.: Рус. партнер, ЛТД, 1994; Рашков И.Я. Международное рекламное дело. – М., 1994; Ученова В.В., Старых Н.В. История рекламы: Детство и отрочество. – М.: Смысл, 1994; Кафтанджиев Х. Тексты печатной рекламы. – М.: Смысл, 1995; Бове К., Арнс У. Современная реклама. – Тула: Довган, 1995; Искусство рекламы: теория и практика соврем. рекламы. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1992; Аниськина Н.В., Кольшикина Т.Б. Модели анализа рекламного текста: учебное пособие//Н.В.Аниськина, Т.Б.Кольшикина – М.: Форум; НИЦ ИНФРА. –М., 2013; Кохтев Н.Н. Реклама:

Reklama diskursida berilgan ma'lumotning adresat tomonidan qabul qilinishi masalasi kognitiv-pragmatik, psixolingvistik va sotsiolingvistik yo'nalishdagi tadqiqotlarga yo'l ochib berdi.

O'zbek jurnalistikasi va matbuot tilining bir qismi sifatida reklama matnining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi<sup>5</sup>.

Iqtisodiy sohalarda raqobat olami shakllangan sayin o'zbek tili reklama lingvistikasi fanini o'rganishga va uni yangi izlanishlar bilan boyitishga qaratilgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda va fan olamida dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda<sup>6</sup>.

O'zbek tiliga xos mediareklama diskursining lingvistik xususiyatlari bugunga qadar monografik planda o'rganilmagan<sup>7</sup> va ularning lingvopragmatik va psixolingvistik xususiyatlari, deyarli, tadqiq qilinmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Til va

---

искусство слова: рекомендации для составителей рекламных текстов. – М.: МГУ, 1997. Словарь-справочник по рекламе, связям с общественностью, средствам массовой информации, СМИ статьи, 1998// <https://books.google.co.uz/books?id=5OBSBAAAQBAJ&pg>; Комаров В.Г. Как разграничить ПР и рекламу? СПб.: Санкт-Петербургский государственный университет, 1999; Пирогова Ю.К., Баранов А.Н., Паршин П.Б и др. Рекламный текст: лингвистика и семиотика. – М., 2000; Уэллс У., Бернет Д., Мориорти С. Реклама: принципы и практика // пер.с англ. Под. ред. С.Г. Божук. – М.: Питер, 2001; Медведева Е.В. Рекламная коммуникация. – М.: Высшая школа, 2004; Фарби Э.Д. Как создать успешную рекламу. – СПб., 2004; Медведева Е.В. Рекламная коммуникация. – М.: Едиториал УРСС, 2004; Булатова Э.В. Прямая и косвенная коммуникация в современной российской печатной рекламе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005; Андерсон О.В. Лингвокультурологические и национально-ментальные особенности языка рекламы: Дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2006; Терпугова Е.А. Рекламный текст как особый тип императивного дискурса: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Иркутск, 2000; Панкова И.М. Сравнение как смыслообразующая доминанта рекламного текста: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2006; Спирчагова Т.А. Функционально-коммуникативные особенности рекламного дискурса: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2008; Огилви Д. Тайны рекламного двора. Учебное пособие – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009; Степанова Е.В. Реализация лингвопрагматического потенциала фактора адресата в рекламном дискурсе (на материале английского языка): дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2010; Вариясова Е.В. Средства речевого воздействия в русских рекламных текстах: экспериментальное исследование: дисс. ...канд. филол. наук. – Тюмень, 2013; Кромптон А. Мастерская рекламного текста// Условия референтной определенности слов. – Рига, 1991. Пирогова Ю.К. Имплицитная информация в рекламных текстах // Реклама и жизнь. №9, 1999; Шморина Е. Психологические аспекты рекламы // Рекламные технологии. № 4 (17), 1999. Попова Е.С. Прототипический рекламный текст в структуре манипулятивного воздействия // Слово. Словарь. Словесность: социокультурные координаты (к 110-летию со дня рождения Н.П.Гришковой). Мат-лы Всероссийской конференции. 2006; Горячев А.А. Языковое представление социальных характеристик адресанта и адресата в рекламе // Русистика и современность. Том 1. Материалы X международной научно-практической конференции. – СПб, 2007.

<sup>5</sup> Эшбеков Т.У. Жамоатчилик билан алоқалар ва матбуот хизматлари. Маърузалар матни. – Тошкент: Университет, 2008; Тоҳиров З.Т. ОАВ рекламалари услубияти назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Университет, 2006; Гаффаров Н.Н. Оммавий ахборот воситаларида реклама. Маърузалар матни. – Тошкент: ЎзМУ, 2000; Умурзақов А.М. Ижтимоий рекламалар жамоатчилик фикрини шакллантириш воситаси сифатида // НамДУ илмий ахборотномаси. № 4, 2018; Маллаева Ф. Рекламининг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни // ҚарДУ хабарлари. – Қарши, 2019. Нестеренко Ф. ва бошқ. Луғат-маълумотнома: Журналистика, Реклама, Паблик Рилейшнз. 1700 атама. – Тошкент: Зар қалам, 2003.

<sup>6</sup> Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социolingvistik тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. –Самарканд, 2021. – 15 б.

<sup>7</sup> Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. автореф. (PhD). – Андижон, 2020. – Б. 51. <http://library.ziyounet.uz/uz/book/112956> – Murojaat sanasi: 09.05.2024.

madaniyat integratsiyasi xorijiy tillar ta'limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, lingvodidaktik va raqamli yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** reklama diskursining shakllanish omillarini kognitiv-pragmatik xususiyatlari hamda ifoda imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mediareklama, og'zaki reklama diskursining nazariy va amaliy jihatlari, qonuniyatlari kabi nazariyalar haqida bildirilgan jahon tilshunoslarining fikr-mulohazalariga munosabat bildirish;

mediareklamaning ko'rinishlari, reklama diskursining nazariy va amaliy jihatlari, qonuniyatlari kabi nazariyalarni hisobga olib, ekspert nutqining iste'molchilar auditoriyasiga ta'sirini o'rganish;

reklamaga xos mediadiskurs, matn va diskurs tadqiqot metodlari tadrijiy taraqqiyoti muammosining o'zbek tilshunosligida tadqiq etish holatiga ilmiy-tanqidiy yoki tahliliy munosabatda bo'lish va baholash;

telereklamaga xos matnlarning lingvistik-pragmatik tomonlarini hisobga olib, turlarga ajratish va tasniflash;

o'zbek tilidagi mediareklama matni va diskursining kommunikativ-pragmatik va janr xususiyatlarini tadqiq qilish;

o'zbek tilidagi mediareklama diskursining o'ziga xosligini ekstralingvistik va lingvistik tamoyillar asosida tadqiq qilish;

telereklama va mediareklamaning janr xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi misolida o'zbek tili va lingvomadaniy (kodlarning) uyg'unlashuvini yoritish;

mediareklamada qo'llaniladigan lingvistik vositalar asosida o'zbek tilida yaratilgan telereklama, og'zaki reklamalarda lisoniy tuzilmalar va kombinatsiyalarni nazariy va amaliy tahliliy jihatdan tadqiq qilish;

zamonaviy reklama diskursida maqsadga yo'naltiruvchi til birliklarining lisoniy imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

og'zaki hamda telereklamalarda lisoniy elementlarning kognitiv tuzilish sifatida qurilgan "matn", "diskurs" va "reklama" tushunchalarining ilmiy tahlillariga asoslanib so'zlashuv uslubiga xos sotuvchilar nutqi, ilmiy uslubga xos mutaxassis nutqi, nutqiy akt bosqichlarining (*lokutiv, illokutiv va perllokutiv*) funksional tomonlari uslubiy imkoniyatlaridan kelib chiqib og'zaki va mediareklamalar misolida ochib berish;

sloganlarda yashirin maqsadning pragmatik talqinini lingvistik tahlil asosida ochiqlash.

**Tadqiqot obyekti.** O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan "Yoshlar", "Zo'r tv", "Sevimli" telekanallari, "Kun.uz" sayti va O'zbekistonning 12 ta shahar va tumanlari savdo markazlari va dehqon bozorlari hamda "YouTube" saytidagi turli kanallar, oshxona va jamoat joylaridagi *indoor* reklama monitorlarida namoyish qilingan 500 dan ortiq reklama matni tadqiqotning asosiy obyekti bo'ldi.

**Tadqiqot predmeti** sifatida quyidagilar tanlandi:

o'zbek tilidagi mediareklama matnlarining lingvistik xususiyatlari;

reklama diskursida qo'llaniladigan til birliklarining pragmatik imkoniyatlari;

reklama matnida verbal va noverbal komponentlarning o'zaro ta'siri;  
reklama diskursining iste'molchi ongiga ta'sir qilish mexanizmlari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda ichki tasniflash, semiotik tahlil, semantik-stilistik, kontekstual, komponent hamda lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

O'zbekistonda iste'molchilar mentaliteti – o'zbek iste'molchilari qatlami tavsiya yoki maslahat tarzidagi reklama mahsulotiga ko'proq ishonishidan kelib chiqib reklama qilinayotgan ko'plab mahsulotlar dialogik nutq namoyishi orqali "*Tajribadan o'tgan va tavsiya qilinadi*" tarzida namoyish qilinishi iste'molchi bilan kommunikativ diskurs munosabatini shakllantirishda juda qulayligi, iste'molchi reklamadagi tavsiflovchi insonlarning mahsulotga munosabatini ko'rib, ixtiyoriy diskursiv munosabatga kirishishi aniqlangan;

reklama namoyishidan maqsad nafaqat tomoshabinlar e'tiborini jalb qilish, balki auditoriyani mahsulotga qiziqtirish va xarid qilishga undash bo'lib, bu institutsional diskursda ikki asosiy ishtirokchi guruh: iste'molchilar va reklamasi namoyish qilinayotgan firma vakillari o'zaro muloqotga kirishishi, institutsional diskurs doirasida kommunikativ klishe – nutqiy qolipdan keng foydalanilishi misollar orqali dalillangan;

reklama intensiyasi xaridorni ishontirish yoki harakatga undash, xaridorga aniq harakatni taklif qilish, xaridor bilan ishonchli munosabat o'rnatish, kelajakdagi majburiyat va imkoniyatlarni bildirib kelishi aniqlangan;

reklama diskursining xronotopi – reklamaning zamon va makonga mos tarzda namoyish qilinishini iste'molchining aniq vaqti, qatnov yo'nalishlariga qarab; har bir davrdagi zamonaviy texnologiya (gologramma, haykal, 3D monitor va hokazo) va ilm-fan yangiliklariga qarab; o'zaro ijtimoiy-kommunikativ munosabatlarning ommalashuviga qarab shakllanishi aniqlangan;

tadqiqotda o'zbek tilidagi media va og'zaki reklama materiallarini lingvopragmatik tahlil qilish natijasida adresat (iste'molchi) va reklama komponentlarining o'zaro ta'siri samarali reklama matni yaratishning asosiy tayanch nuqtasi ekanligi aniqlanib, shu asosda institutsional diskursning asosiy komponentlari – adresant, adresat, muloqot xronotopi, maqsad-takliflar, kommunikativ strategiyalar va janrlar – o'zbek reklama diskursida lingvomadaniy, lingvokognitiv, sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmatik xususiyatlarga ega ekanligi ochib berilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

mustaqillikning dastlabki yillarida og'zaki reklama muhim o'rin egallagani, XXI asr boshlarida bosma, radio, TV reklamalar ommalashgani, yonuvchi reklamalar (led) paydo bo'lganligi, hozirda esa internet reklamalarining ommalashgani kabi ekstralingvistik omillar reklama diskursining ta'siri kuchayib borishiga sabab bo'lganligi ochib berilgan;

reklama tizimi iste'molchilar ongiga ma'naviy va hissiy-emotsional ta'sir o'tkazish adresant va adresatning diskurs munosabatiga bog'liqligi, reklama mahsulotining ta'sir kuchi turli intralingvistik va ekstralingvistik omillar uyg'unligida amal qilishi faktik materiallar asosida tahlil qilingan;

reklama diskursi xususiyatlari va qo'llanish doirasini filologik jihatdan tavsiflash maqsadida uning sotsiolingvistik va psixolingvistik, funksional xususiyatlari, o'zbek tilidagi og'zaki reklamaning kommunikativ va pragmatik tomonlari, iste'molchilar auditoriyasiga ijtimoiy-psixologik va suggestiv-emotsional ta'sir xususiyatlari lingvistik jihatdan tadqiq qilingan;

reklama samaradorligida reklama matnidagi verbal va noverbal komponentlarning to'g'ri tanlanishi va leksemalarning leksik-semantik mazmundorligi, sloganning qisqaligi va ta'sirchan lingvistik stukturaga egaligi, o'zbek tili reklama sloganlarida metafora, metonimiya, sinekdoxa, evfemizm, personifikatsiya va konversiya kabi lisoniy hodisalar muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan;

treylar promoshnlar verbal komponentlarining noverbal komponentlarga nisbatan kam qo'llanishi; lingvistik birliklarning "qoliplilik" tamoyilida klishe sifatida takror kelishi; muallif nutqi yoki matnining chegaralanganligi; noverbal elementlarning ko'proq qo'llanilishi; iste'molchilarni qiziqtiruvchi nutqiy akt elementlarining reklama mahsuloti so'nggida qo'llanishi kabi lingvistik jihatlari ochib berilgan.

vodiydagi bozorlarda sotuvchining muloqot jarayonida ishlatiladigan umumiy 100 ta – jami 25000 so'zlik dialoglarning lingvistik unsurlari transkripsiya qilingan va *AntConc* dasturida foizlarda hisoblab chiqilgan: Murojaat leksemalari (masalan, "aka", "opa", "hoji ona") 8,000 so'zda paydo bo'ldi (32%); taklif/maqtov jumalari (masalan, "o'zingizniki", "Turkiyaniki") 10,250 so'zda (41%); ko'ndirish jumalari (masalan, "kelishtirib beramiz", "arziydigan") 5,500 so'zda (22%); boshqa jumalar (salomlashish, xayrlashish) 1,250 so'zda (5%).

muloqot strategiyasida reklama xabarining maqsadlari iste'molchining kundalik muloqotida foydalanadigan, o'zi tushunadigan, sodda leksemalarga tayanish; namoyish qilinayotgan axborotning ma'lumot uzatishini hisobga olgan holda matnning ixcham shaklini ishlab chiqish; reklama xabarining barcha komponentlaridan foydalanish; iste'molchilarning reklama qilinayotgan mahsulotga bo'lgan munosabatini hisobga olish(kichik auditoriya sinovi asosida); iste'molchini jalb qiluvchi ekstralingvistik omillardan biri – reklama mahsulotining joylashuvini hisobga olish; reklamaning ta'sir kuchini oshirish uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash; har qanday taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmatni iste'molchi hissiy yoki aqliy idrok etishiga yo'naltirish; iste'molchi uchun mahsulotning konseptual imijini yaratish va takror namoyishlar orqali ongga singdirish; reklama qilinayotgan mahsulotdan foydalanish modeli iste'molchi ongida o'z ehtiyojidan kelib chiqib tanlashiga qaratilishi ochib berilgan;

mahsulotni namoyish qilishda brifing, ko'rgazma yoki ilk taqsimotini o'tkazishda firma vakili yoki firma tomonidan yollangan va tadbirni olib

boruvchi shaxsning roli taklif qilinayotgan mahsulotning barcha afzalliklarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi, buning natijasida tadbir jarayonida olib boruvchining mavqeyi maqomi statusi yuqorilashi yoki aksi bo'lishi mumkinligi aniqlangan va reklama diskursida tashkiliy formani belgilovchi ikkita xususiyat: tadbir maqsadi va ishtirokchilar ajratilib, ushbu holat reklama diskursida institutsional diskursni shaxsiy diskursdan alohida ajratib turadigan kommunikativ qolip sifatida baholangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik konferensiya materiallari to'plamlarida tezislar chop etilganligi, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidan joy olgan maxsus ilmiy-ommabop jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar, mavzu bo'yicha xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, telereklama tarkibidagi matnning o'ziga xos lingvistik tahlili natijalari leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik, matn tilshunosligi va lingvopragmatika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya sohasidagi tadqiqotlarni boyitayotganligi bilan aniqlanadi. Dissertatsiyada keltirilgan nazariy fikrlar o'zbek tilshunosligida matnda til birliklari ifodasi va milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, o'zbek tilidagi reklama matnlarining lingvistik, ekstralingvistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning iste'molchi auditoriyasiga emotsional ta'sir mexanizmlari aniqlangan. Ushbu natijalar reklama mahsulotlarini yaratish va takomillashtirishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy asosni shakllantiradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Reklama diskursining shakllanish omillarini kognitiv-pragmatik tadqiq etish asosida:

dissertatsiyada o'zbek tili reklama lingvistikasining fan sifatida shakllanishi va janr sifatida turlicha tasniflanib, ma'lum turlarga ajratilishining formal-struktural jihatlari, o'ziga xos ichki qonuniyatlarining shakllanishi, media va og'zaki reklamaning ijtimoiy qatlamlarda qo'llanilish xususiyatlariga doir xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan "OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Andijon davlat universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 39-04-880-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nutqdagi lisoniy madaniyatni shakllantirishda reklama matnining nutqiy-emotsional ta'sirchanligi, reklama tilining semantik ko'lami va nutqiy voqelanish xususiyatlari ochib berilgan.

dissertatsiyadagi mediareklama, og'zaki va yozma reklama, mediadiskurs hamda reklama janrlariga xos lisoniy atamalar, ularning izohlari, genezisi, tarjimasi, psixologik unsurlari katta o'rin tutishi asoslanganligi; reklama terminologiyasi jamiyatning zamonaviy rivojlanishi kontekstida ommaviy kommunikatsiya xabarlarining bir turi sifatida qabul qilinganligi va terminologiya sohasidagi yutuq va kamchiliklari e'tirof etilganligi, amaliy

tilshunoslikning reklama terminologiyasini o'rganish zamonaviy jamiyatda reklamaning ahamiyati kabi ekstralingvistik omil bilan bog'liq evolutsion soha ekanligi ochib berilgan tomonlarini yoritishga doir qarashlardan, ixtisoslashgan atamalar tavsifiga doir ilmiy natijalari va materiallaridan Andijon davlat universitetida bajarilgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 39-04-879-sonli ma'lumotnomasi). Natijada reklamaga oid atamalarning qo'llanishida o'ziga xoslik kasb qiluvchi ayrim til birliklarining tavsifi yanada yorqinlashgan.

dissertatsiyada reklama tilining o'ziga xosligi va uning iste'molchiga ta'sir etuvchi lingvistik strategiyalari orqali savdo jarayonidagi muvaffaqiyat qanday ta'minlanishi, reklama diskursining pragmatik yondashuvi, ya'ni reklamaning sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi muloqot vositasi sifatidagi rolini aniqlashda lingvistik va sotsiologik tahlili, reklama matnlari maqsadli auditoriyaga qanday moslashtirilgani, bozor munosabatlarida qanday rol o'ynashi to'g'risidagi tahlillar reklama diskursining ijtimoiy va iqtisodiy kontekstini ochib berishi haqidagi ilmiy nazariyalar asosidagi qarashlarga oid fikr-mulohazalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli eshittirishlarida (2024-yil sentyabr va oktyabr oylari) foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 25-oktyabrdagi 04-36-1139-sonli ma'lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda televizion reklamaning turli janrlari, ularning lingvistik va vizual komponentlari ahamiyatini izchil amaliy tatbiq etishda o'ziga xoslik ta'minlangan.

dissertatsiyada reklama matnlarida badiiy tasvir vositalari(metafora, sinekdoxa, metonimiya, personifikatsiya, sintaktik adyektivatsiya, konversiya kabilar)ning qo'llanilishi bilan bog'liq masalalar qonuniyatlari ishlab chiqilgan; og'zaki reklama va uning tafakkur va real nutqda voqelanish uslubi, reklama matnlari pragmatikasi real kommunikativ-aloqa jarayonida og'zaki nutq yoki matn orqali adresat (iste'molchi)ning taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatga nisbatan munosabatiga doir doir ilmiy natijalari va materiallardan O'zbekiston savdo-sanoat palatasining a'zolari – "Super kargo" MCHJ, "Armug'on Oltinko'l chorvasi" fermer xo'jaligi, "Agro asia cluster" MCHJning reklama mahsulotini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasi 2024-yil 16-apreldagi 51/201-02-son ma'lumotnomalari.). Natijada o'zbek tilidagi reklama mahsulotlariga ilmiy yondashilgan va reklama matnining jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan.

dissertatsiyada iste'molchiga psixolingvistik ta'sir etish, uni psixologik baholash, matnni pragmatik yondashuv asosida uning idrok etilishiga doir izlanishlar natijasida Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkor G'.F.Dehqonovning doimiy mijozlari "Oltin sohil" istirohat bog'i, "Armug'on

Oltinko‘l” fermer xo‘jaligi; “Agro asia trade servise” MCHJning reklama mahsulotlarini tayyorlashda dissertatsiyadagi nazariy qarashlarga oid fikr-mulohazalardan foydalanilgan (Yakka tartibdagi tadbirkor G‘.F.Dehqonovning 2024-yil 11-avgustdagi № 15/012 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ularning jamiyat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘lami ortib, reklama mahsulotidagi lisoniy jozibani oshirishga, oson va qulay idrok etilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosida tashkillangan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 15 ta ilmiy maqola, jumladan, 11 ta respublika va 4 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, beshta bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 259 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot ishining O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“O‘zbekistonda mediareklamaning kirib kelishi va zamonaviy tasnifi”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“O‘zbekistonda reklamaning tarixiy shakllanishi va konsepsiyasi”** deb nomlanib, unda XX asrda reklamaga bo‘lgan dunyoqarashning shakllanishi, reklama matnidagi leksemalarning tartiblanishi, reklama elementlarining tanlanishi, reklamaning gazeta va jurnallardagi ilk paydo bo‘lishi kabi muammolar tadqiq etilgan. O‘zbekistonda reklamaning dastlabki ko‘rinishlaridan to hozirgi davrgacha rivojlangan davri 4 bosqichga bo‘lib o‘rganilgan.

Reklamaning dastlabki ko‘rinishlari gazetalarda e‘lon qilingan. Adabiy hamda mahalliy va xorijiy davlatlar siyosiy hayotiga oid yangiliklarga bag‘ishlangan «Переводчик» gazetasining 1895-yil 21-may (№20) sonida qo‘l tikuv mashinasining reklamasi berilganligi bunga misol bo‘lishi mumkin. Gazetaning so‘nggi sahifasida shunday yozuvga duch kelamiz: «Дозволено цензурою г.Евпатории 19 мая 1885 г. Типолитогр. газ. «Переводчик» г. Бахчисарай». Keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davrda ham gazetaning tarkibiy qismlarida senzura nazorati o‘rnatilgan. 1913-yil 3-sentabrda Toshkentda chop

etilgan “Kapa kypt” gazetasining 23-sonida shahar madaniy hayotiga oid yozgi teatr xabarlarini, tijorat reklamasi sifatidagi “Xonimlar diqqatiga! Parijdan ko‘ylak, kostyum...judayam go‘zal modellarini olib keldim...»« satrlarni ko‘rishimiz mumkin<sup>8</sup>.

O‘zbek tilshunosligida “O‘zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot” ilk tadqiqot ishi 2018-2020-yillarda B.Abdullayev tomonidan olib borilgan bo‘lsa, (Reklamalarning turlarga ajratilishi, sloganlar, reklama tarixi va komponentlari haqida), D.Sh.Mamirovaning “O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik tadqiqi”<sup>9</sup> (Reklama matnlarining ijtimoiy ahamiyati, reklamani psixologik tadqiqi), A.Sh.Xolboboyevaning “Turizmga oid reklamalarda ritorik aspektning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida turizm reklamasi va misollar tahlili haqida)”<sup>10</sup> PhD darajasidagi va Z.A.Xolmatovning “Paralingvistik vositalarning reklamadagi o‘rni, roli va samaradorligi” magistrlik dissertatsiyalari<sup>11</sup>, A.Abdusaidovning “Reklama tili”, “Reklama va savodxonlik”<sup>12</sup>, SH.Yunusovning “O‘zbek tilidagi reklamalarning lingvistik xususiyatlari”, E.E.Kurbanovning “Reklama – nutqiy ta’sir omili sifatida”, M.Hayitovning “Reklamalar ma’rifat ko‘zgusi” maqolalarida reklama tilining o‘ziga xos jihatlari turli aspektlarda o‘rganilgan<sup>13</sup>.

Qayd etilgan tadqiqotlar reklama fenomeni ijtimoiy-gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy plandagi ma’lumotlarini birlashtirgan ko‘p tarmoqli hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Reklama mahsulotlari amaliy tilshunoslikning yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslik fani, reklamani, asosan, matn tomonini tadqiq qiladi.

Birinchi bobning 2-fasli “**Media-diskurs va media-reklama tushunchasi**” deb nomlangan. Media – bu biror iste’molchiga xabarni (bosma so‘z, musiqiy kompozitsiya, radioeshittirish va boshqalar) u yoki bu shaklda yetkazish uchun xizmat qiluvchi axborot vositalari va texnikalarining butun majmuasini o‘z ichiga olgan keng tushunchadir. Odatda, media atamasi mustaqil ravishda qo‘llanilmaydi, balki uning xususiy varianti bo‘lgan qo‘shma so‘zning bir qismi sifatida xizmat qiladi (media marketing, media reklama, ommaviy axborot vositalari, media-reja, media-rejalashtirish, mediaxolding)<sup>14</sup>.

XX asrning ohirgi yillarida urfga aylangan reklama huquqi asosidagi teleko‘rsatuvlar ham media-diskursning yorqin namunasi sanaladi. Bunday ko‘rsatuvlar ham taklif qilinayotgan mahsulotlarning sifati, qulayligi, bozor iqtisodiyotidagi o‘rni, turdosh mahsulotlar orasidagi darajasi va ishlab chiqaruvchi

<sup>8</sup> Мухамеджанова С. Ўзбекистон реклама санъати тарихидан. <https://shosh.uz/ozbekiston-reklama-sanati-tarixidan>. – Murojaat sanasi: 14.02.2023

<sup>9</sup> Мамирова Д. О‘sha asar..– В.18.

<sup>10</sup> Холбобоева А. Ш. Туризмга оид рекламаларда ritorik aspektning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. bo‘y. fals. doktori diss. – Toshkent, 2023 – В.53.

<sup>11</sup> Мамирова Д. О‘sha asar..– В.20.

<sup>12</sup> Sobirova D.R. Tibbiy reklama matnlarini yaratish usullari//Academic research in educational sciences.// VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385. – В.1242-1245

<sup>13</sup> Юнусова Ш. Ўзбек тилидаги рекламаларнинг лингвистик хусусиятлари // Глобаллашув даврида тилшunoslik va adabietshunoslik taraqqiёti hamda taъlim texnologiyalari. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Б. 46-48. <https://inlibrary.uz>; – Murojaat sanasi:11.02.2022

<sup>14</sup> “Медиа”. “Записки маркетолога”. Словарь маркетинга. [https://www.marketch.ru/marketing\\_dictionary/marketing\\_terms/m/media/](https://www.marketch.ru/marketing_dictionary/marketing_terms/m/media/). – Murojaat sanasi: 11.12.2023

firma yoki tashkilotning maqtashga arzigulik jihatlarini keng yoritishga xizmat qiladi. Bunday reklamalarda noverbal komponentlar o'zni verbal komponentlardan biroz quyi pog'onada bo'ladi.

Barcha media reklamalar – reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatlar haqidagi ma'lumotlarning hissiy-emotsional jihatdan to'yingan oqimidir. Bunday ma'lumotlar oqimi shaxsga qaratilgan axborot birligi bo'lib, iste'molchi kognitiv olamida muayyan his-tuyg'ularni uyg'otadi va harid qilish xatti-harakatini keltirib chiqaradi. Bu borada o'ziga xos xususiyat – bu boy hissiy kuchga ega bo'lgan reklama leksikasidir. Izlanishlar davomida media tushunchasining ko'plab ta'riflari va nazariyalari o'rganildi.

Bobning 3-faslida **“Media reklama tarixi va tadriji”** o'rganilgan.

Reklamalar dastlab e'lon ko'rinishidagi matnlar bo'lgan. Keyinchalik jimjimador yoki rasmi matn holatida, go'zal xonimlar yoki taniqli shaxslar suratlari bilan namoyish etila boshladi. Radioaloqa xizmatlarining paydo bo'lishi bilan ovozli, telekommunikatsiya xizmatlarining yaratilishi bilan video ko'rinishida, internet olamining kashf etilishi bilan sayt reklama bannerlari, turli effektlar bilan, galogrammaning kashf etilishi bilan galogramma tarzida namoyish etila boshladi.

Mediareklamaning yana bir yutuqli tomoni videoreklamaning paydo bo'lishi edi. Televideniyaning ommalashuvi natijasida iste'molchilar ko'proq vaqt sarflaydigan jihat televizor ko'rish edi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bozor munosabatlarida diskursning shaklanishi”** deb nomlangan. Ushbu bobda reklama diskursi va reklamada intensiya jarayoni haqida xususida so'z yuritiladi. Bobning 1-fasli **“Reklama diskursi institutsional diskursning bir turi sifatida”** deb nomlangan.

Diskursga xos nutqiy muloqotning institusional turlari gender tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika, semiotika va matn llingvisitikasining kesishgan nuqtasida o'rganilib, institusional muloqot diskursi turlaridan biri sifatida reklama diskursi shakllanadi.

Institusional diskurs “qattiq” va “yumshoq” variantga ega. Uning “qattiq” varianti eng tipik bo'ladi. Bular, so'roq qilish jarayoni, sud majlislaridagi suhbat, harbiy yoki mediklar qasamyodi, turli jangovar topshiriqlarni belgilash va boshqalar. “Yumshoq” varianti chegara, periferik vaziyatlar va janrlar (bir xil ijtimoiy institut vakillari o'rtasidagi suhbat) uchun xarakterli bo'lib, diskursning bir nechta turlariga, jumladan, shaxsiy diskursga xosdir.<sup>15</sup>

Bugungi kunda institutsional diskursning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular: *ma'muriy, siyosiy, huquqiy, diplomatik, diniy, harbiy, pedagogik, tibbiy, mistik, ommaviy axborot, biznes, sport, reklama, sahna, ilmiy* diskurs va boshqalar. **Institutsionallik** reklama diskursining asosiy belgisi bo'lib, ushbu turdagi diskurslarning ijtimoiy institutlar bilan o'zaro ta'sirini tasdiqlovchi xususiyatdir.<sup>16</sup>

<sup>15</sup> Данилова С. А. Институциональный дискурс, интердискурсивность и дискурсная гетерогенность // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 30. – С.316-320. <http://e-koncept.ru/2015> – Murojaat sanasi: 12.01.2023

<sup>16</sup> iqtibos olindi: Галица Е.В. Неоднозначность и дискуссионность рекламного дискурса / Е.В. Галица.–Текст: непосредственный // Молодой ученый, 2017. – № 41 (175). – С. 86-89 .

Shunday qilib, reklama diskursi xususiy institusional diskursning bir turi bo‘lib, uning maqsadi mahsulotni sotib olish uchun reklama matnidan foydalana oladigan iste‘molchilar auditoriyasini kashf qilishdir.

Bobning 2-faslida **“Reklama diskursida intensiya jarayoni”** masalasi qo‘yilgan. Har qanday reklama namoyishida kommunikativ maqsad ko‘zlanadi. Kommunikatsiya jarayonini umumiy intensiya deb olinadi. Umumiy intensiya reklama diskursini shakllantiruvchi omillardan biri sanaladi. Umumiy intensiya reklama diskursini tashkil qilish debochasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Reklama diskursida intension jarayon – bu reklama yaratish va uning iste‘molchilarga ta’sir ko‘rsatishi jarayonini qamrab oluvchi fikr va g‘oyalar majmuini anglatadi. Reklama diskursida intension jarayon reklamanning maqsadi, auditoriya bilan bog‘lanish shakllari va qanday kommunikativ strategiya yordamida ma’no yaratishni o‘z ichiga oladi.

Kiyev universitetining professori O.G. Pochepsov fikriga ko‘ra, “nutqiy akt vositasida voqelanadigan maqsad so‘zlovchi ko‘zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir. Shuning uchun ham olim umumiy intensionni ikki qismga, ya’ni *“boshlang‘ich intensiya (maqsad)”* va *«natijaviy intensiya»* ga ajratishni taklif qiladi. O.G.Pochepsov boshlang‘ich maqsad harakati gapning strukturaviy semantik xususiyatlariga asosan mos kelishini qayd etadi”<sup>17</sup>.

O‘zbekiston hududida bosma reklamalar ommalashgunga qadar, 90 foiz holatda og‘zaki reklamalardan foydalanishgan. Og‘zaki reklamalardan, asosan, bozor hududida, aksariyat holatlarda, atorchilar ko‘cha savdosida foydalanilgan!

Qadimdan bozor hududidagi savdo jarayonida boshlang‘ich intensionni shakllantiruvchi sintaktik birliklardan foydalanilgan. Hozirda o‘zbek bozorlarida *“Kep qoling!!! Op qoling!!!”*, *“Olganlar darmonda, olmaganlar armonda!”*, *“Sotaman-u ketaman!”*, *“Mana tekin qivordik”*, *“Mana, arzon bo‘p ketti!”*, *“Piyozniyam arzonlatvordik, kelinglar”*, *“Rossiyskiy paltolar”*, *“Germanskiy botinka sotaman”*, *“Qani-qani, olinglar!”* kabi chorlovchi til birliklari keng qo‘llanadi.

**Og‘zaki reklamalarda boshlang‘ich intensiya O‘zbekiston hududlarida qo‘llanadigan chaqiriqlar farqlanadi:**

- ***Kep qoling! Op qoling! Muzqaymoqdan yeb qoling! Zo‘r marojna deb qoling!*** (Quva tumani, Farg‘ona yo‘liga chiqib ketish yo‘lida. 2023-yil, mart)

Buyruq fe‘llarining (*Kep qoling!, Op qoling! yeb qoling!, ..deb qoling!*) qofiyalanishi, ovozning jarangdorligi va mahsulotning “zo‘r” leksemasi bilan maqталishi intensionni kuchaytirib, iste‘molchilarni chorlashga xizmat qilmoqda.

- ***Shokoladli syurpriz! Ichida syurprizi bor! Rossiyskiy shirinliklar!*** (Toshkent viloyati, Qo‘ylik hududi. 2018-yil, noyabr)

*“Syurpriz”* neologizmi kutilmagan yangilik ma’nosida intensionni kuchaytirib, qiziqtirishga undasa, *“shokoladli”* sifatlovchi aniqlovchisi iste‘molchida tatib ko‘rishga xohish tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. *“Rossiyskiy”* leksemasi o‘zbek xalqi iste‘molchilari orasida “ishonarli davlat mahsuloti” nomini olganligi uchun, ishonchlilik hissini uyg‘otishga qaratilgan.

- ***Mana tekin bo‘p ketdi gugutla!*** (Namangan viloyati, “Lola” bozori)

<sup>17</sup> iqtibos olindi: Примов А., Қодирова Х. Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. Ўқув-услубий қўлланма. // - Урганч, 2020. – Б.30.

“Mana” leksemasi, “*tekin bo‘p ketdi*” sintaktik qurilmasi esa iste‘molchilar ongida “arzon ekan” degan konnotativ mazmuni shakllantirib, intenziyani yuzaga keltirdi.

- ***Go‘shstan oling, go‘shstan! Puliz o‘ziz bilan ketadi!*** (Andijon viloyati “Eski shahar” dehqon bozori, 2019-yil, dekabr)

“*Go‘shst(d)an*” leksemasining takror aytilishi hamda “*Puliz o‘ziz bilan ketadi!*” sintaktik birligi adresat ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan.

- ***Virusni somsa yengadi, kelinglar! Somsa yeng aka, kelinglar!*** (Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani, Oqtepa yo‘li, 2020-yil, may)

Somsaning energetik kuchini tavsiflashda, aynan, “virus” leksemasining ishlatilishi “Covid-19” pandemiya davri bo‘lganligi uchun diskursiv vaziyatga ko‘ra zamon va makonga xoslangan til birligidan foydalanishi so‘zlovchining o‘ziga xos topilmasi bo‘lib, og‘zaki reklamaning ta‘sir kuchini sezilarli darajada oshirgan. Keyingi jumladagi “*kelinglar*”, “*yeng*” buyruq fe‘llari iste‘molchini sotib olishga undashning pragmatik ko‘rinishi sifatida tavsiflanadi.

- ***Nonlari bilan, choylari bilan, joylari bilan, lag‘mon, shashliklar yenglar!*** (Andijon shahri, “Yangi bozor” hududi 2023-yil, dekabr)

“...*bilan*” yordamchi so‘zi lingvistik takror hosil qilib, “non”, “choy”, “joy” ohangdosh va qofiyadosh so‘zlarning qator kelishi orqali iste‘molchilar uchun “imkoniyatlar qatori” musiqiy ohangda uqtirilmoqda va bu ular uchun chegirma, bonus sifatida intensiv birlik vazifasini bajaradi.

- ***Arzon gazli suv! Gazi tekin!*** (Buxoro, Romitan dehqon bozori, 2023-yil, may)

“*Arzon, tekin*” leksemalari iste‘molchilarni o‘ziga chorlash mazmunida aytilmoqda va intensiv birlik vazifasini bajarmoqda.

- ***Kelinglar, tatib ko‘rish bepul!*** (Andijon shahri, “Eski shahar” dehqon bozori, suzma sotuvchi, 2022, fevral)

“*Tatib ko‘rish bepul*” sintaktik qurilmasi iste‘molchilarni qiziqtirib, ongida “chorlov” vazifasini bajarib, intenziya hodisasini shakllantirmoqda. Bunday sintaktik birliklar Andijon bozorlarida mahsulot turiga qarab “*chaqib ko‘rish tekin, kiyib ko‘rish tekin, minib ko‘rish tekin*” kabi ko‘rinishlarda uchraydi. Ushbu tipdagi sintaktik birliklar so‘z o‘yini sifatida “tekin bo‘lgani uchun hech narsa yutqazmaysiz” qabilidagi pragmatik mazmuni ifodalaydi.

- ***Nima istadiz?, Nima kerak, aka?!*** (Andijon viloyati, Shahrixon kiyim bozori, 2023, mart)

So‘roq mazmunidagi ushbu intenziya xaridorni muloqotga chorlaydi. Ushbu so‘roq konstruksiyasi bozor munosabatlarida sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi diskurs vaziyati shakllanishiga sabab bo‘ladi va “Bizda siz uchun kerakli hamma izlagan narsalaringiz bor”, “Izlagan narsangizni topib berishga yordam qilaman” degan sema bilan iste‘molchini chorlash vazifasini bajaradi.

- ***Kelinglar, suv keremi?*** (Navoiy viloyati, Jomboy tumani, Yangi bozor hududi, 2023, may)

Jumladagi “*suv keremi?*” so‘roq konstruksiyasi pragmatik tarzda bayon qilinib, “*suv sotaman*”, “*suvdan oling*” semasini hosil qiladi va bozor munosabatlarida sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi diskurs vaziyati shakllanishiga sabab bo‘ladi.

- ***Bananlarni 15 mingdan beramiz!*** (Navoiy viloyati, Jomboy tumani, Yangi bozor hududi, 2023-yil, may)

“15 mingdan beramiz” buyruq fe’li pragmatik tarzda bayon qilinib, “eski narxidan arzon” semasini shakllantirib, iste’molchini chorlash vazifasini bajaradi.

- ***Ko‘ring, opa! 200-grammlisini kelishtirib beray!*** (Navoiy viloyati, Jomboy tumani, Yangi bozor hududi, karam sotuvchisi, 2023-yil, may)

“Ko‘ring” buyruq fe’li, “kelishtirib beray” sintaktik konstruksiyasi pragmatik tarzda bayon qilinib, “sotib oling”, “arzon sotaman” ma’nolarini ifodalagan.

- ***Juma muborek bo‘lsin! Alloh xeyrli qisin! 19 ming edi, 17 qilib beraman!*** (Buxoro, Romitan dehqon bozori, 2023-yil, may).

“Juma muborek bo‘lsin!, Alloh xeyrli qisin!” sintaktik konstruksiyalari muloqot jarayoniga diniy konseptual tus berib, adresat fikrini ijobiy tomonga o‘zgartirishga turtki berishi ko‘zlangan. “19 ming edi, 17 qilib beraman” sintaktik konstruksiyasi va uning tarkibidagi “beraman” fe’li pragmatik tarzda “avvalgi narxidan arzon”, “sotaman” degan semalarni shakllantirib, iste’molchini chorlash vazifasini bajaradi.

- ***Somsa olinglar! Bolalarga domashniy somsadan beraman! Aka, somsadan oling! Somsa beray!*** (Samarqand, Registon hududi, 2023-yil, may)

“Olinglar, oling” buyruq fe’li pragmatik ma’noda bayon qilinib, “sotib” yetakchi fe’li ifodalagan hokim bo‘lak ifodalagan mazmunni “oling” buyruq fe’li pragmatik tarzda ifodalab kelmoqda. “Bolalarga” leksik birlik orqali “uydagi boshqa iste’molchilarga” semasi shakllanmoqda. “Domashniy” (varvarizm) leksemasi orqali “uyda qo‘lbola tayyorlangan” semasi ifodalanmoqda. “Aka” leksemasi hurmat yuzasidan murojaat mazmunida aytiladigan va xaridorni muloqotga boshlash uchun tanlangan lisoniy birlik sanaladi.

Bunday og‘zaki reklama usuli Yevropa bozorlarida hozirda juda ham kamdan-kam uchraydigan hodisa sanaladi.

Bobning uchinchi faslida “**Bozor munosabatlarida nutqiy akt masalasi**” muhokamaga tortilgan. Rus sotsiologi professor F.I.Sharkov reklama matni haqida quyidagilarni bayon qilgan:“...Reklama xabarleri, odatda, reklama beruvchini xarid qilishga undash uchun unga ta’sir qilish usullarining turli kombinatsiyalari hisoblanadi. Buning uchun ular sotilayotgan mahsulot atrofida qulay muhit yaratishga, uni o‘ziga xos fikrlar bilan o‘rab olishga harakat qiladilar”<sup>18</sup>. Reklama diskursini lingvistik aspektda tahlil qilishimiz uchun reklamanning kommunikativ-pragmatik tomonlarini o‘rganish talab etiladi.

O‘zbek tilshunosligida M.Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” nomli dissertatsiyasida *nutqiy akt nazariyasi, lokutiv, illokutiv, perlokutiv* aktlar, *tagbilim* va *tagma’no* singari masalalar yuzasidan o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk marta fikr-mulohazalar yuritilgan<sup>19</sup>.

Savdo jarayonida ba’zan illokutiv fe’llarning ochiq semalari ochiq tarzda bayon qilinadi. Misol uchun: *Savdoda halollik – yolg‘on ishlatmaslikdir. Men*

<sup>18</sup> Шарков Ф. И. Реклама в коммуникационном процессе: Учебник / Ф. И. Шарков. –2-е изд.–М.: Издательско торговая корпорация «Дашков и К°», 2009. – 348 с. <http://www.psu.ru/files/docs/science/dissertatsionnye-sovety/Van%20Nin/Dissertaciya.pdf>. – Murojaat sanasi:12.01.2023

<sup>19</sup>Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка / Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2009.– №6. – Б.104 -107.

aytgan narxda olsangiz, shu kuylakdan 10 ming foydalanaman, bo'lmasa xarajatlarim chiqmaydi. Xohlasangiz, rozi bo'lib shu narxda sotib oling! (Jizzax viloyati, Zarbdor kiyim bozori, 2023, may).

## 2.1 jadval

Areal hudud	Illokusiya jarayonida ishlatilgan til birliklari
Andijon	<i>“Arzonlatib beraman, agar “Jahon”da mendan arzon bersa, pulizi qaytarib, shu tuflini ham olmiman!”, “Yo'lida bo'ladi”, “Kelishamiz, aka. So'rangchi, axir”, “Ko'ring-chi?”, “Uka so'rorasiz, bozor-ku!”</i>
Toshkent	<i>“Olor, o'zi arzon-ku uka!”, Menga qara uka, bitta non topaman deb o'tirippan! Sen bergan pulingdan shu qolsa, jiyanlaringga yediraman. Halol savdo deding, aytdim ”</i>
Farg'ona	<i>“Bu narxni ko'tarmaydi, bizda”, “Axir, bir narsa deng siz ham”, “Bexijolat, akajon, izlab kelasiz!”, “Pulizi olib, aldasam, otam haydavoradi!”</i>
Surxondaryo	<i>“Yaxshi yetib keldizmi?”, “2 ta patir o'ttiz sotaman, bo'ladimi? Bir joyga oborsangiz uyalmaysiz, otvechat qilaman! Bo'ladimi? Yana oling!”</i>
Navoiy	<i>“Olaberling, kelasiz yana!”, Bachalarizga olasiz-da, kelishamiz!”, Bu suvni gazi oshqozonni davolamasa, meni deysiz! Yaxtakkina ichasiz, 1 kun suv demaysiz!”</i>
Sirdaryo	<i>“Hali zamon kelasiz qaytib”, Bu bo'maydimi? Qarang aka, Optim 5000, men 1000 so'm, suvni pulini so'radim. Oqmoyini dog'lanmaganini aldab, 5000 desa arzon desangiz, olaberling!”</i>
Qashqadaryo	<i>“Do'konimiz tepadaligiga arzon, tekindek oling!”, Ishlab chiqorgan firmaga qarang, narxiga ham qarang, bilasiz!”</i>
Buxoro	<i>“Ko'ring qani, kiyib ko'rsayiz, olorasiz. Yoqib qoladi”, “Yolg'on bo'maydi, bugun juma! Allohdan so'radim, beradi, sizni aldab nima olaman! ”,</i>
Namangan	<i>“Narsa qilib olsangiz, arzonlatib beraman”, “Ako, buni materialini ko'ring, pul so'ramayman! Agar boshqa do'konda bersa, pulizi qaytarmagan nomard!”</i>
Jizzax	<i>“Yaxshi keldizmi, Mana ko'ring-chi”, “Ishga bo'lsa, bos! Rezinkamas padoshi. O'zi yoqib, puli yoqmasa 65 ga ol!”, olsang, rahmat deysan!”, “Bu Turkiya, uka. Siz O'zbekistonnikini ko'rgansiz! Men ham beroraman, arzon qilib. Ano dedim, boya kelgan, jiyanimga! Shu qizchaga olasizmi?”</i>
Sirdaryo	<i>“Yanagi kelganda qo'shib berasiz, oloring”, “Aytaymi, aldamasangiz, halol bo'ladi! O'sha narsani olib, bolamga yediraman-ku!”, “Kiyib ko'ringlar, yoqsa, olasiz! Sifati pulizga arziydi!”</i>

Ikkinchi bobning 4-fasli “Bozor munosabatlarning diskursda aks etishi” deb nomlangan. Reklama diskursi yozma va og'zaki nutq shakliga ega. Reklama mahsulotining maqsadi og'zaki yoki yozma shaklida ham bir xil bo'lib, iste'molchi bilan kommunikativ aloqaga kirishadi va diskurs sharoiti hosil bo'ladi.

Bozor savdolarida reklama diskursi – sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi nutqiy jarayon bo‘lib, reklama matnining barcha lingvistik va ekstralingvistik tomonlarini qamrab oladi. Avvalo, reklama diskursi tabiatini yozma shakllaridagi misollar orqali tahlil qilsak. Bosma reklamada nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan barqaror birikmalardan va muloqot ta’sirchanligini oshiruvchi til birliklaridan unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Misol: **1.** Andijon viloyati “Yangi bozor” hududidagi reklama matni: *“Shu yerdan necha marta o‘tding. Qachon tushunasan dasturlash kelajakligini? Darvozadan 2–qavatga chiq!”*

Ushbu reklama banneridagi o‘ziga xoslik iste’molchini hazil aralash muloqotga chorlovchi lingvistik birliklar asosida tayyorlangan. “Sen” deb murojaat qilish o‘zbek xalqi orasida qo‘pol tuyulsa-da, iste’molchilar yoshiga nisbatan “yaqinlik”ni bildiradi. Agar shu jumlar katta yoshdagilar ehtiyoji uchun taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatga nisbatan yozilganda edi, “hurmatsizlik” ma’nosida reklama samaradorligi ko‘ngildagidek natija bermas edi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Reklama diskursi va reklama matni”** masalasi yoritilgan. Bobning ilk faslida **“Tilshunoslikda matn va diskurs tushunchasi”** yoritilgan. Tilshunos olimlarning aksariyati matnni faqat yozma nutqda uchraydigan hodisa sifatida tan olishadi, boshqalari esa, matnni og‘zaki, ammo faqat monologik nutq hodisasi sifatida, yana boshqalari esa, matn haqida dialogik nutqdagi har qanday nutqiy faoliyatni amalga oshirish sifatida gapirishadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan:

Matn [*arabcha* – yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat<sup>20</sup>.

Ishda P.Ya. Galperin, A.N.Leontyev, G.O.Benevist, N.S.Valgina, E.V.Yerofeyeva, A.N.Kudlayeva, A.A.Leontyev, Y.A.Sorokin, A.S.Stern, P.Serio, V.Z.Demyankov, N.N.Mironova, E.N.Mishkurov, YE.V.Sidorov, N.V.Grabovskiy, A.A.Kibrik kabi tilshunoslarning matn va diskurs haqidagi fikrlariga munosabat bildirilgan. Shundan kelib chiqib, matnning asosiy xususiyatlarini sanab o‘tamiz:

1. Matn og‘zaki va yozma tarzda namoyon bo‘ladigan hodisadir.
2. Matn – yaxlit hodisa.
3. Matnda mazmunan doimo bir-biri bilan bog‘langan kichik mavzular bo‘lishi mumkin.
4. Matn to‘liq yoki qisman tugallangan holatda namoyon bo‘lishi mumkin.

“Diskurs” hayot bilan aloqalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tiklanmaydigan qadimiy va boshqa matnlarga taalluqli hodisa emas. G‘arbiy Yevropa tilshunosligida “matn” va “diskurs” tushunchalari o‘rtasida aniq farqlashga harakat qilgan ilk olimlardan biri T. van Deyk bo‘lib, u: “...Diskurs – bu to‘g‘ri talaffuz qilingan matn, “matn” esa talaffuzning abstrakt grammatik tuzilishi. Diskurs – bu nutqqa tegishli tushuncha, “matn” esa til tizimi yoki rasmiy lingvistik bilimlar, lingvistik kompetensiya bilan bog‘liq tushunchadir”<sup>21</sup>.

<sup>20</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд, ЎзМЭ, 2007. – Б.557.

<sup>21</sup> Валгина, Н.С. Теория текста .<http://evartist.narod.ru/text14/01.htm>. – Murojaat sanasi:02.01.2023

Diskurs, muloqotning murakkab kommunikativ hodisasi bo'lib, matn maqomiga ega bo'la oladi, lekin matn diskurs bo'la olmaydi. Diskurs matn sifatida grammatik, leksik, paralingvistik qoidalari va semantikasi bilan ajralib turadi. Lekin diskurs turli xil ekstralingvistik omillar bilan shartlanganligi va ularni tarkibiy qismlar sifatida o'z ichiga olganligi uchun lisoniy birlik sifatida emas, nutqiy hosila sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Bobning ikkinchi faslida **“O‘zbek tilshunosligida reklama diskursi va reklama aloqasi haqida”** so‘z yuritiladi.

Diskursning reklamadagi o‘rni, diskurs – og‘zaki yoki yozma matndagi voqea-hodisalar, xaridor va iste‘molchilar, namoyish qilinayotgan axborotlarinigina emas, iste‘molchilarga tavsiya qilinadigan mahsulotning barcha ijobiy tomonlarini, ya‘ni quyidagi holatlarni o‘zida namoyon etadi:

a) matndagi voqea-hodisalar natijasini (*“Sitro” ichdim va “Spark” yutib oldim!*);

b) jarayonlarni aniqlashtiradigan mikroelementlar (rang, ovoz, muhit) (*“Ucell”, “Pepsi”, “Artel” ranglari*);

d) voqea-hodisada qatnashuvchi shaxslarning holatga bahosi (*“Artel” – mening tanlovim!*);

e) voqea-hodisalar bilan solishtiradigan ma‘lumot (*Oddiy kir yuvish kukunidan emas, “Ariel” dan foydalaning!*);

f) voqea va tafsilotlarga munosabat (*“Fastum gel” doimiy hamrohimga aylandi!*)<sup>22</sup>.

Reklama matnining asosiy maqsadi turli lingvistik va paralingvistik birliklar yordamida iste‘molchilarga ta‘sir qilishdir. Umumiy olganda, diskurs tushunchasining og‘zaki va yozma shakllarida, avvalo, kommunikativ muloqot holatiga ko‘ra taqqoslasak, o‘ziga xos usul va yo‘nalishlardan foydalaniladi. Reklama diskursining og‘zaki va yozma shaklida esa, axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) makon-zamon holatlariga ko‘ra farqlanadi.

Bobning uchinchi fasli **“O‘zbek tilshunosligida reklama diskursi va reklama muloqoti”** tadqiqiga qaratilgan.

Diskurs ekstralingvistik-pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan uyg‘unlashgan izchil matn; voqea aspektida olingan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq. Diskurs - bu hayotga to‘yintirilgan nutqdir<sup>23</sup>.

Diskursning asosiy vazifasi og‘zaki reklamalarda induvidial va ommaviy tarzda namoyish etiladi. Bunda sotuvchi va xaridor o‘rtasida ikkisini ham maqsadini amalga oshirishda xizmat qiladi. Iste‘molchi ongini monopulyatsiya qilish jarayoni og‘zaki reklamalarda aniq seziladi.

Yoz faslida Andijon shahridagi “Jahon bozori” hududida joylashgan tilla bozoriga yo‘lim tushib qoldi. Ichkarida sotuvchilarni kuzatar ekanman bir holat o‘ziga tortdi.

*Ko‘kat sotuvchi tog‘a tillafurush oldidan o‘tib ketayotib:  
– Achchig‘iz qanaqa Ra‘no opa?,- dedi.*

<sup>22</sup> Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. автореф. (PhD). – Андижон, 2020. – Б. 51. <http://library.ziyounet.uz/uz/book/112956> – Murojaat sanasi: 09.05.2024..

<sup>23</sup> Пиронкова О. В. Живые новости // Социс, 2000, № 8, – С. 67-74.

– *Achchiq? Achchig‘im sal ozroq qoldi. Tugadi desam ham bo‘lovradi.*  
– *Unda yangi uzilganidan berib ketaymi?– dedi sotuvchi qo‘lidagi yangi uzilgan qalampirni ko‘rsatib.*

– *Mayli, ikki bog‘dan kashnich, ukroplardan ham qo‘shib tashlab keting.*

Bu vaziyatda so‘zlovchi nutqida metonimiya orqali “qalampir” sememasidagi achchiq semasi aktuallashib, “qalampir” ma‘nosini anglatgan.

Diskursning reklamadagi o‘rni, diskurs – og‘zaki yoki yozma matndagi voqea-hodisalar, xaridor va iste‘molchilar, namoyish qilinayotgan axborotlarinigina emas, iste‘molchilarga tavsiya qilinadigan mahsulotning barcha ijobiy tomonlarini, ya‘ni quyidagi holatlarni o‘zida namoyon etadi:

a) matndagi voqea-hodisalar natijasini (“*Sitro*” *ichdim* va “*Spark*” *yutib oldim!*);

b) jarayonlarni aniqlashtiradigan mikroelementlar (rang, ovoz, muhit) (“*Ucell*”, “*Pepsi*”, “*Artel*” *ranglari*);

v) voqea-hodisada qatnashuvchi shaxslarning holatga bahosi (“*Artel*” – *mening tanlovim!*);

g) voqea-hodisalar bilan solishtiradigan ma‘lumot (*Oddiy kir yuvish kukunidan emas, “Ariel” dan foydalaning!*);

d) voqea va tafsilotlarga munosabat (“*Fastum gel*” *doimiy hamrohimga aylandi!*)<sup>24</sup>.

Reklama diskursi va reklama muloqoti tushunchalarini dunyo tilshunoslari tomonidan keng o‘rganish va tadqiq qilish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir.

“Reklama diskursi”ning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi “reklama”, “matn”, “kommunikatsiya”, “diskurs” tushunchalarining bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini tushuntirishdan iborat. Zamonaviy o‘zbek tili madaniyatida “reklama” so‘zi mahsulot va “faoliyat” ma‘nolarini sinkretik tarzda birlashtiradi va ularni quyidagicha ajratadi:

1) reklama mahsulotidagi asosiy component hisoblangan matn (reklamaning mazmuni mujassamlangan matn);

2) reklamaning alohida janri yoki kichik janri (telereklama, siyosiy reklama, internet reklamasi, indor reklama);

3) reklama yaratish yoki tayyorlashga aloqador faoliyati (reklama yaratish, tarqatish va joylashtirish bilan shug‘ullanish).

Tadqiqotning to‘rtinchi bobi “**Telereklamalar tavsifi va talqini**” masalasiga qaratilgan. 1-faslda “**Televizion reklamalarning janr xususiyatlari**” tadqiq qilingan. Tadqiqot ishimizda o‘rganish kerak bo‘lgan obyektlardan biri televideniye hisoblanadi. Televideniye o‘ziga xos xususiyatlari, telereklama mahsulotlarini yaratishning asosiy talablari, reklama uzatish va tayyorlash xizmatlarining texnik va huquqiy jihatlari tatbiq etilishi kerak bo‘lgan vazifa sanaladi.

Televideniye reklama tarqatuvchi eng samarali kommunikatsion vosita bo‘lib, uning qulayliklari ba‘zi kamchiliklardan ancha ustun turadi.

Bu iste‘molchilar auditoriyasini o‘ziga jalb qilish nuqtayi nazaridan reklama mahsulotining eng ommalashgan kommunikativ vositasidir.

<sup>24</sup> Абдуллаев Б.Х. О‘sha asar. – Б.51.

*Reklama videosing matn-diskurs shakllanishi sifatida samaradorligi til vositalarining video va audio ketma-ketligining noverbal makoniga organik integratsiyalashuviga bog‘liq.*<sup>25</sup> Ya‘ni reklama matnidagi lisoniy va nolisoniy komponentlar yordamida iste‘molchilar ongiga ma‘naviy va hissiy-emotsional ta‘sir o‘tkazish adresant va adresatning diskurs munosabatiga bog‘liq.

Telereklama o‘ziga xos talab va xususiyatlarga ega bo‘lganligi, harakat va ovoz imkoniyatlari sifatli uzatilganligi uchun reklama mahsuloti beruvchi tomonidan kerakli axborotni tomoshabinlarga samarali yetkazib beradi va xotirada yaxshi saqlanadi.

**Televizion reklama (telereklama)** – mahsulotlar va xizmatlar haqida tomoshabinni qiziqtiradigan axborotlarni televideniye tarmog‘iga joylashtirish orqali targ‘ib qilishga qaratilgan media mahsulotidir. Televizion reklama - teledasturlar va ko‘ngilochar filmlar, seriallar o‘rtasida yoki ichida joylashtirilgan qisqa metrajli media birlik sanaladi.

Televideniye reklama tarqatuvchi eng samarali kommunikatsion vosita bo‘lib, uning qulayliklari ba‘zi kamchiliklardan ancha ustun turadi.

Rus marketologi V.Dubininaning fikricha telereklamalar quyidagicha janrlarga taqsimlanadi:

1. **Yolg‘iz tovar** – fonsiz yoki atrof-muhitsiz faqat mahsulotning o‘zi.
2. **Boshlovchi ishtirokida** – taqdimotchi diktor yoki firma vakili bo‘lishi mumkin.
3. **“Oldin” va “keyingi” holat** – obyektning keyingi ta‘siri ko‘rsatiladi.
4. **Ekstremal holatdagi sinovlar** – ekstremal sinovlar o‘tkaziladi.
5. **Qarama-qarshi qo‘yish** – boshqa tovar bilan solishtiriladi yoki qiyoslanadi.
6. **Tabiiy chizgilar** – o‘zga shaxs yordamida maslahat olinadi.
7. **Vinyetka**– shaxsning muammosi qisqa vaqtli kadrlar bilan ko‘rsatiladi.
8. **Tovar foydasiga guvohlik** – intervyuda iste‘molchi tavsiyasi ko‘rsatiladi.
9. **Hujjatli namoyish** – mahsulotni real hayotdagi tajriba holati ko‘rsatiladi.
10. **Ramziy namoyish** – nomoddiy narsalar biror motiv bilan ko‘rsatiladi.
11. **Qiyoslash** – mahsulotni biror analogi bilan solishtirish holati ko‘rsatiladi<sup>26</sup>.

Rus tilshunosi T.G.Dobrosklonskaya shunday degan edi: Reklama ommaviy ongga shakllantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi, zamonaviy madaniy landshaftning ajralmas qismiga aylanadi<sup>27</sup>.

Demak, telereklamalar zamonaviy inson ruhiyatiga ta‘sir etishning kuchli manipulyatsion quroli bo‘lib rivojlandi, natijada insoniyat hayotining yangi qadriyatlari, stereotiplari, me‘yorlari va boshqa parametrlarini shakllantiradi. Reklamalarning qimmatli axborot manbaiga aylanishi xususiy telekanallarning ham ko‘payishiga va ularning o‘z auditoriyasiga ko‘plab iste‘molchilarni

<sup>25</sup> Седова М.И. Рекламный видеоролик. Текст научной работы. – С. 64-67.

<https://cyberleninka.ru/article/n/reklamnyy-videorolik>. – Murojaat sanasi: 12.02.2023

<sup>26</sup> Дубинина Ю.В. Рекламный ролик: особенности жанра, этапы создания.–Иркутск. 2006 г. – С. 29.

<sup>27</sup> Добросклонская Т. Г. Вопросы изучения медиа-текстов (опыт исследования современной английской медиаречи). М.: Едиториал УРСС, 2005. – С. 288.

tomoshabin sifatida jamlashiga zamin yaratdi. Mediaolamning keng tarmoqli sohaga aylanishining moddiy manbasi reklama mahsuloti bo'lib qoldi. Reklamalarning asosiy ta'sir kuchini matn belgilaydi. U media yoki bosma nashrlar bo'lsin, matn eng ta'sirchan komponent sifatida o'z o'rnida qoldi. Matn haqidagi bilimlarni o'rganish va tadqiq qilish tilshunoslik fanining vazifasidir. Odatda, har bir yaratilgan matn diskursning hosilasi hisoblanadi. Ayniqsa, reklama matni pragmatik jihatdan boyitilgan turli konstruksiyalar bilan to'yintiriladi. Verbal va noverbal elementlarning kreolizatsiyalangan shakli iste'molchilarga manipulyatsion ta'sir etishning eng kuchli ko'rinishi bo'lgan reklama turi – mediareklamalarda o'z aksini topdi.

Bobdagi ikkinchi faslda “**Televizion reklamalarning tasniflanishi**” masalasi ko'rilgan. Televizion reklamalar tipologiyasi mezonlarini aniqlashda va ishlab chiqishda, ko'rib turganimizdek, yagona tizimli yondashuv mavjud emas. Yuqoridagi qarashlar qatori biz ham bugungi kun holatidan kelib chiqib televizion reklama tur va janrlarini 2 taraflama tasniflashga harakat qildik:

1. Televizion reklamalarning namoyishiga ko'ra tasniflanishi;
2. Televizion reklamalarning janr xususiyatiga ko'ra tasniflanishi.

Ular quyidagicha turlarga ajratildi:

- a) *Reklama posti;*
- b) *Anonslar;*
- c) *To'g'ridan-to'g'ri reklama;*
- d) *Treylerlar va saundtreklar;*
- e) *Reklama video kliplari;*
- f) *Reklama ko'rsatuvlari;*
- g) *Informatsion dasturlar;*
- h) *Yashirin reklamalar;*

**Anonslar** – boshqa manbalarda televizion poster deb nomlanib, telekanalning yaqin kelajakda kutilayotgan yangi tadbir, ko'rsatuvlar va ko'ngilochar dasturlar haqidagi reklama e'loni, shu jumladan, ushbu telekanalarning qiziqarli dasturlari haqida umumiy ma'lumot va uning mazmuni haqida qisqartirilgan ma'lumotdir. Anonslar telekanal mahsuloti va reklama e'lonlariga ajratiladi.

**To'g'ridan-to'g'ri reklama roliklarida** obrazlilik va mahsulot ma'lumotlari ko'p bo'lgan media mahsulot sifatida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda reklama roliklari juda ko'p tarqalgan media mahsulotidir. Reklama roliklari:

– matn va animatsiya tarzida: *Gripp va shamollashda menga “Gripixot”kerak? “Gripixot”!*

**Treyler promoshnlar yoki saundtreklar** film, multfilm va seriallarni ekranda namoyish qilishdan avval qiziqarli kadrlar tasvirlangan 3-5 daqiqali musiqa+video ko'rinishidagi mediareklama hisoblanadi.

**Treyler - bu kelajakda kinoteatrlarda yoki telekanalda namoyish etiladigan badiiy film uchun tijorat reklamasi. Bu ijodiy va texnik mehnat mahsulidir.**<sup>28</sup>

Treyler verbal va noverbal komponentlar ishtirokida tayyorlanadigan ijod mahsuli. Treylerda film syujetining qay darajada hissiy-emotsionalligiga qarab, musiqa (ekshnaction) tanlanadi. Treylerda “kalit so‘zlar yoki jumlar” har kadr almashilganda matn shaklida namoyish etiladi. Bu keyingi kadr voqeligiga tomoshabinni tayyorlash va bu matn keyingi kadr uchun “sarlavhacha” deyilsa ham bo‘ladi.

**Reklama video kliplari** – 2-xil maqsadda namoyish qilinadi: ijodkorning shaxsiy ashulasi reklamasi uchun olingan **odatiy klip** va boshqa mahsulot reklamasi mazmunidagi **maxsus klip**. Misol uchun: Jahongir Foziljonovning “*Book nomy*”, xonanda Farruh Raimovning “*Navoiy city*” va “*Xon saroy*” nomli musiqiy kliplari buyurtma asosida tayyorlangan.

**Reklama ko‘rsatuvlariga** turli manbalarda har xil nomlar berilgan (teleshopping, myshop kabi). “Teleshopping” – firma yoki biror kompaniya mahsuloti yoki xizmatini reklama qilib, tarqatish uchun buyurtma asosida tayyorlanadi.

**Informatsion axborot tarzida** ham reklamalar namoyish qilinishi mumkin. Shaklan yangilik xabar, mazmunan reklama mahsuloti sanaladi. Bu media mahsulotida kompaniyaning ilk mahsulot taqdimoti, qo‘shiqchilarning ilk albom taqdimoti, kompaniyalarning ilk do‘kon ochilishi marosimi, erishgan yutuqlari, homiylik asosida bayram va tadbirlar namoyishi, kompaniya ko‘rsatkichlari va e‘lon qilingan aksiyalari va hokazo mazmunidagi xabarlar efirga uzatiladi.

**Yashirin reklamalar** kinofilm, multfilm yoki seriallar tarkibida namoyish qilinadigan reklamalar. Bunday reklamalar uchun efirga uzatilish jarayonida reklama sifatida tv ga mablag‘ ajratilmaydi. Tomoshabinlar film yoki serial ko‘rish jarayonida reklama kuchini boshqa reklamalardek his qilmaydi, ammo ularda qiziqish uyg‘onadi. Misol uchun Koreya kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan “*Kelajak xotiralari*” filmining 1:32 daqiqasida film qahramoni Su Jin “*..Esingdami buni sen berganding, (qo‘lidagi qachondir asrab qo‘ygan suratga qarab) Vermilion ko‘li Kanadada joylashgan. Orzumdagi shahar. Ko‘l yaqinida uy bo‘ladi. Bilasanmi, men Kanadaga ketaman. O‘sha yerda yangi hayot boshlayman. U yerda bizni go‘zal hayot kutadi.*”

#### 4.1 jadval. Badiiy mazmun va voqelik.

- obrazli reklama	⇒	obraz+reklama
- animatsion reklama	⇒	animatsiya+reklama
- musiqali reklama	⇒	musiqa+reklama
- ko‘rsatuvli reklama	⇒	ko‘rsatuv+reklama
- intervyu reklama	⇒	intervyu+reklama
- sharhlanuvchi reklama	⇒	muallif nutqi+reklama

Reklama turlari amaliyotda hissiy emotsionallik ta’siri bilan ajralib turadi.

<sup>28</sup> Trailer (advertisement).  
sanasi:15.02.2023

[https://en.wikipedia.org/wiki/Trailer\\_\(promotion\)#cite\\_note-](https://en.wikipedia.org/wiki/Trailer_(promotion)#cite_note-)

– Murojaat

### **3-fasl “Zamonaviy telereklamalarda ekspert nutqining diskursiv tahlili” ga qaratilgan.**

Reklamadagi axborotni uzatish strukturasi, reklamaga tanlab olingan mavzuni baholashning ko‘rsatilgan strategiyalari, tanlovning mantiqiy asoslari, mavzu sohasining taqdimoti – bularning barchasi birgalikda mutaxassislar nutqini takrorlaydigan diskurs amaliyotining maxsus turini belgilaydi<sup>29</sup>.

Xalqimizda “*Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin*”, degan naql bor. Chunki, har narsaning mutaxassisi sohani yaxshi tushunadigan va o‘rgangan shaxs sifatida qaraladi.

Telereklamadagi ekspert soha mutaxassisi sifatida reklamadagi mahsulotga aloqador insoniyat duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning kelib chiqishi va belgilarini aytib o‘tadi. Bunday muammoli holatni fanga aloqador jumlar bilan tavsiflaydi, keyin esa oqibatlarini haqida prognoz beradi. Odatda, ekspert nutqi reklama qilinayotgan mahsulotdan foydalanish sharti bilan iste‘molchilarning holati yaxshilanishini va baxtli hayot kechirishini bashorat qiladi.

Tadqiqotning beshinchi bobi “**Reklama matnida til hodisalari va ekspressiv vositalar**” deb nomlangan. 1-faslda “**Televizion reklama sloganlarining maqsad va vazifalari**” masalasi o‘rganilgan.

“Slogan” nomi, asli, inglizchadan olingan lingvistik birlik bo‘lib, avvaliga, siyosiy atama sifatida “shior” o‘rnida qo‘llangan va XIX asr boshlaridan tijoriy reklama sohasida ham foydalanila boshlangan. Rus tilshunosi E.Medvedeva ta’kidlaganidek, “slogan” reklama iborasi hisoblanib, reklama kompaniyasi doirasida asosiy reklama taklifini umumlashtirish<sup>30</sup> vositasi bo‘lib, zamonaviy ma’nodagi reallikdagi talqini ilk marta 1880-yilda ishlatilgan<sup>31</sup>. Demak, slogan so‘zining asl ma’nosi – “jangovar chaqiriq” jumlasiga to‘g‘ri kelib, hozirgi lingvistikada juda aniq va mantiqiy ravishda reklama mazmunini aks ettiradi.

Slogan tanlangan ommaviy axborot vositalari yoki reklama tarqalishiga vositachi bo‘ladigan har qanday unsurdan qat’i nazar, shakl va mazmun jihatidan qofiyalangan holatda yoki mazmundor jumlar bilan takror-takror namoyish etiladi. M: 1. *Yordam bersa “Kargrip”, sizni tark etar shamollash-u gripp!*

2. *Dubay suxarilari – mazali va sovg‘ali!*

**Beshinchi bobning 2-fasli. “Reklama sloganlarida pragmatika” masalasiga qaratilgan.**

Reklama matnidagi lingvistik aktning asosiy vazifasi qabul qiluvchi (iste‘molchi)ning “hali rejalashtirilmagan” savoliga (yoki qiziqishiga) javob yoki taklif bo‘lib, qabul qiluvchini qiziqtirib, ishontirib, uni ushbu mahsulotni sotib olishga yoki xizmatdan foydalanishga ko‘ndirishdir. Sloganda keltirilgan ma’lumotlar ba’zi holatlarda informatsion axborot sifatida qabul qilinadi va reklama matnining asosiy komponenti vazifasini bajaradi. Bunday vaziyatda slogan reklama mazmunini tashuvchi kommunikativ vosita bo‘lib yoki

<sup>29</sup> Хвостунова О. Экспертные сообщества и проблемы публичного политического дискурса в современных СМИ / «Меди@льманах», №6, 2006. – С. 4 - 9.

<sup>30</sup> Медведева Е. Основы рекламоведения. М.: РИП-Холдинг, 2003.– С. 9.

<sup>31</sup> Учёнова В.В., Старых Н.В. История рекламы. – СПб. Питер, 2002. – С.82.

mahsulotning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida jamlaydigan lingvistik struktura sifatida namoyish qilinadi.

M: *“Oral B” – tish karashlaridan 2 barobar himoya va sog'lom milklar!*

**3-faslda Sloganlarning ta'sir etish bosqichlarida lingvomadaniy jihatlar tahlil qilingan.**

Reklama mazmunini o'zida aks ettiruvchi kichik axborot birligi sloganlar sanaladi. Slogan leksemasi dastlab motivatsiyani shakllantirishda janglardagi askarlar uchun boshqa voqe'lik sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, hozirda qo'llanilayotgan ijtimoiy va lingvistik maqsadiga ko'ra reklama komponentlaridan biri deb tan olingan.

Reklama sloganlarida badiiy ta'sirchanlikni oshiradigan vositalar bilan tanishib chiqsak:

**Epitet yoki sifatlash** – stilistika va poetika termini; antik davrdan ma'lum badiiy tasviriy vosita. Narsa va hodisalarga, tushuncha va hokazolarga xos xususiyatlarni obrazli tavsiflash.<sup>32</sup> M: *“Carte” noi kofesi – lazzatning nozik ta'mi!*

Ushbu sloganda “nozik” leksemasi narsa va buyumga nisbatan qo'llaniladigan sifat bo'lib, “ta'm” leksemasini bo'rttirib sifatlab kelmoqda.

**Metafora**<sup>33</sup> **yoki istiora**<sup>34</sup>– (yunoncha metaphora- ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. Istiora badiiy asarlarda aks etayotgan narsa, voqea, hodisalarning aniq, ravshan gavdalanib turishida, obrazlar tavsiflarining yorqin berilishida, asar joziba kuchining oshishida nihoyatda muhim o'rin tutadi. M: *“Captain” – kunni softlik bilan boshlang! Sof qiling!*

**Konversiya.** Reklama sloganida **konversiya** hodisasi ham uchrab turadi. Ushbu hodisa yuz berganda reklama sloganida ishtirok etgan bir turkumdagi leksik birlik boshqa turkumdagi leksema ifodalaydigan ma'no hosil bo'ladi va hosila natijasida pragmatik munosabat yuzaga keladi. Konversiya hodisasi sintaktik va leksik turlarga bo'lib o'rganiladi.

Nutq jarayonida pragmatik ma'no hosil qilishga xizmat qiladigan hodisalardan yana biri personifikatsiyadir.

**Personifikatsiya** – jonsiz narsa va hodisalarga insoniy xususiyatlarning (kengroq aytganda, tirik mavjudotning xususiyatlari) o'tishiga asoslangan metaforaning alohida turi.<sup>35</sup> M: *“Folik” – bolalar va onalarning himoyachisi!*

**Metonimiya** – ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi<sup>36</sup>. M: *Musaffolikni “STIX” bilan his eting!* Ushbu sloganda “kir yuvish vositasi” birikmasi bajaradigan vazida “STIX” sifat leksemasi, “kir yuvish vositasi”siga aloqadorlik asosida ko'chgan.

<sup>32</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2002. – B.167.

<sup>33</sup> Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари – Тошкент. 1977. – Б.52.

<sup>34</sup> Кўнғуров Р. О'sha asar. – B.52.

<sup>35</sup> Poetika usullari. <https://fresh-deko.ru/uz/buers-tips/priemy-poetiki-literature-priemy-sarkazm-ironiya-i-yumor.html> . – Murojaat sanasi:11.04.2024

<sup>36</sup> Metonimiya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Metonimiya> . – Murojaat sanasi:11.04.2024



## XULOSA

1. 1. Reklama mahsulotini taqdim etishdagi asosiy vazifa – iste'molchilarda mahsulotga bo'lgan o'ziga xos imijni shakllantirish va sotib olishga ko'ndirishdir. Shunga ko'ra reklama mahsuloti tayyorlanishida hech qanday vositasiz iste'molchiga emotsional ta'sir qilish, ehtiyoj uyg'otish va ularning idrokini mahsulot haqidagi ijobiy tasavvurlar bilan boyitish funksiyasini bajarishi uchun turli fan tarmog'i mutaxassislari jalb qilinadi.

Reklama bugungi ta'rifga ega bo'lgunga qadar uning ko'rinishi oddiy e'lon shaklidagi matn yoki fraza sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, iqtisodiyotdagi raqobatlar va fan-texnika rivojlanishi ortidan asosiy komponent hisoblangan reklama matnini turli xil ko'rinishlarda: jimjimador yoki bezakli, rasmlı yoki chizmali, lampochkali yoki diodli(yonuvchi) tarzda namoyish etila boshlagan. Keyinchalik esa evolyutsion rivojlanish so'ngida, ya'ni asrimizning so'nggi yillarida reklama mazmuni turli funksional vazifalar bilan to'ldirilib, taniqli shaxslar, ayrim iste'molchilar(go'yoki sinovdan o'tkazgan iste'molchi-tavsiyachi) yoki ekspert - mutaxassis tavsiyasi, ovoqli(chiroyli fon bilan) va video animatsiyalari ko'rinishida namoyish etila boshladi.

2. Reklamaning lisoniy va nolisoniy komponentlari yordamida adresatga ma'naviy yoki emotsional ta'sir o'tkazish adresantning diskurs munosabatini yaratish va to'g'ri tashkil etishiga bog'liq bo'ladi. Xaridor ongiga ta'sir qilish, mahsulotga nisbatan qiziqish uyg'otish va uning dunyoqarashlarini shakllantirish, xarid qilishga undash reklama matnining asosiy maqsadi hisoblanadi.

3. Reklama diskursining asosiy vazifasi, avvalo, iste'molchini manipulyatsiya qilish va ularning ijtimoiy-sotsial ehtiyojlarini shakllantirish, ikkinchi tomondan, iste'molchiga ommaviy ong subyekti sifatida zamonaviylikning ideal hayotiy tomonlari haqida g'oyaviy va estetik ko'mak berish, mahsulotning zaruriy jihatlarini tanitishdan iborat.

Reklama diskursi xususiyatlari va qo'llanish doirasini filologik jihatdan tushunish va tavsiflashga harakat qilindi. Shu asosda quyidagi vazifalar o'rganib chiqildi:

a) o'zbek tilidagi reklamalarda matn va diskurs tushunchalarini differensial tomonlari ilmiy nuqtayi nazardan tatbiq qilindi;

b) o'zbek tilshunosligi doirasida reklamaga aloqador diskurs va matnning sotsiopragmatik va psixolingvistik xususiyatlari ochib berildi;

d) o'zbek tilida reklama diskursning vazifaviy tomonlari va reklama matniga aloqador jihatlari ochiqlandi;

